

“TASDIQLAYMAN”

Andijon davlat universiteti rektori
A.S.Yuldashev

2017 y.



“Abituriyentlarning hujjatlar to'plamini qaytarib olish uchun elektron ariza berish” interaktiv xizmati reglamenti

1. Xizmat tarifi

1.1. Xizmat nomlanishi:

Universitet rasmiy veb sayti orqali “Abituriyentlarning hujjatlar to'plamini qaytarib olish uchun elektron ariza berish”.

1.2. Xizmat natijasi:

Arizachi hujjatlar to'plamini buyurtma pochta orqali yetkazib berish.

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar:

- Andijon davlat universiteti
- “O'zbekiston pochta” AJ

1.4. Huquqiy asoslari:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 393-sonli qarori;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2007 yil 23 avgustdagi 181-son qarori

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar:

Universitet kirish imtihonlari natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilmagan fuqarolar

1.6. Bajarish muddatlari:

1. Universitetning mas'ul xodimi abituriyent ma'lumotlarini tekshirgandan so'ng 2(ikki) kun ichida hujjatlar to'plamini “O'zbekiston pochta” AJning eng yaqin pochta bo'limiga jo'natadi.
2. “O'zbekiston pochta” AJ hujjatlar to'plamini 5(besh) kundan kechiktirmagan holda abituriyentning doimiy ro'yxatdan o'tgan joydagi eng yaqin pochta bo'limiga yetkazadi.

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma'lumot taqdim etish

2.1. Batafsil ma'lumot olish:

Andijon davlat universiteti rasmiy veb sayti orqali

2.2. Xizmat ko'rsatish manzili haqida ma'lumot olish:

Abituriyentlarning doimiy ro'yxatdan o'tgan joydagi pochta bo'limi hujjatlar to'plamini olish joyi hisoblanadi.

3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

3.1. Ish vaqtlari:

Xizmat ko'rsatuvchining ish vaqti dushanba-shanba kuni soat 9⁰⁰ dan 17⁰⁰ ga qadar.
Murojaat dam olish kunlari yoki bayram kunlari kelib tushgan taqdirda, ularni ko'rib chiqish keying ish kundan boshlanadi.

3.2. Kutish shartlari:

24 soat

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Zarur bo'lgan hujjatlar:

- ERI (elektron raqamli imzo);
- jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion raqami(PINFL)

4.2. Xizmat to'lovi:

Eng kam oylik ish haqqining universitet tomonidan belgilangan miqdorida

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari:

Universitet rasmiy sayti orqali xizmat ko'rsatish bosqichlari:

1. Universitet rasmiy veb saytiga kiriladi;
2. "Interaktiv xizmatlar" bo'limidan "Abituriyentlarning hujjatlar to'plamini qaytarib olish uchun elektron ariza berish" xizmati tanlanadi;
3. Arizachining shaxsiy identifikatsion raqami (PINFL) kiritiladi;
4. To'lov summasi belgilangandan so'ng "To'lovni amalga oshirish" funksiyasi tanlanadi;
5. Avtomatik ravishda onlayn to'lov xizmatini amalga oshiruvchi sayt sahifasiga o'tiladi;
6. Saytda bank plastik kartasining raqami(16 xonalik), amal qilish muddati, "SMS xabarnoma" biriktirilgan telefon raqami kiritiladi, to'lov shartlariga rozilik bildiriladi "Tasdiqlash" tugmasi bosiladi;
7. Telefonga kelgan to'lov amalga oshirish uchun bir martalik SMS kod kiritiladi;
8. To'lov amalga oshirilganligi haqida ma'lumot olinadi;
9. To'lov amalga oshirilganligi va ariza to'g'ri to'ldirilganligi tasdiqlanib, "Elektron raqamli imzo bilan yuborish" funksiyasi tanlanadi va ariza yuboriladi.

4.4. Xizmat ko'rsatishning ichki idoraviy jarayoni:

Murojaat kelib tushgandan so'ng universitet mas'ul xodimi:

- abituriyent ma'lumotlarining to'g'riligini va to'lov amalga oshirilganligini tekshiradi;
- hujjatlar to'plamini "O'zbekiston pochta" AJning tegishli pochta bo'limiga jo'natadi;
- "O'zbekiston pochta" AJ:
- hujjatlar to'plamini abituriyentning doimiy ro'yxatdan o'tgan joydagi eng yaqin pochta bo'limiga yetkazadi.


5. Xizmat ko'rsatish sifati.

5.1. Shikoyat arizasini berish tartibi:

Rad etish hollarida arizachi yuqori turuvchi tashkilotga qonunda ko'rsatilgan tartibda murojaat etishi mumkin.

"KIRITILDI"

Devonxona va arxiv bo'limi boshlig'i



" 01 " // 2017 y.

B. Yunusov

2017 y.

"KELISHILDI"

Axborot texnologiyalari markazi rahbari


" 01 " // 2017 y.

v.v.b. N. Mirzaalimov

2017 y.